



## Frazeologik birliklarda ko'makchilarning qo'llanishiga doir o'ziga xosliklar

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-kurs talabasi Sayfullayeva Shaxrizoda

Ilmiy rahbar: Sh.U.Erbutayeva

*Annotatsiya:* Mazkur ilmiy ishda iboralar tarkibida ko'makchilarning qo'llanishi va ularning iboralarni shakllantirish, ma'no qirralarini ochishdagi ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

*Kalit so'zlar:* frazeologiya, frazema, ko'makchi, makon, obyekt, payt, masofa, vosita ma'nolari

Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar hisoblanib, o'z leksik ma'nolariga ega bo'lgan, ammo davrlar o'tishi bilan bu leksik ma'nolarni yo'qotib, ularning ma'lum qismi o'zgarib bo'lib, hech qanday grammatik shakllarni qabul qilmaydigan holga kelib qolgan, o'zidan oldin kelgan so'zlar bilan birgalikda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon, obyekt, o'xshatish, payt, masofa, yo'nalish singari grammatik ma'nolarni ifoda etadigan va yordamchi vosita sanaladigan til birliklariga aylangan.<sup>1</sup> O'zbek tilshunosligida ko'makchi so'zlarga oid tadqiqotlar ko'plab amalga oshirilgan bo'lib, bunga ko'makchilardagi turlicha ma'no qirralari, o'ziga xos stilistik jihatlari imkoniyat yaratadi.

Frazeologizmlar, iboralar ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan, ma'no jihatidan bir so'zga teng bo'lgan, eng kuchli uslubiy bo'yoqdor so'zlardir. Tilimizda shunday frazeologik iboralar borki, ular tarkibida sof hamda funksional ko'makchilar ishtirok etadi. Bir o'q bilan ikki quyonni urmoq, boshi bilan sho'ng'ib ketmoq, ochiq yuz bilan, to'ydan oldin nog'ora qoqmoq, ko'nglini puch yong'oq bilan to'ldirmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, yer bilan bitta bo'lmoq, ko'z ostiga olmoq, ko'z o'ngiga keltirmoq, komil ishonch bilan, eldan burun va boshqalar.

Bir o'q bilan ikki quyonni urmoq –bir vaqtda ikkita ishni amalga oshirmoq ma'nosini ifodalaydi. Tilda bir o'q bilan ikki qushni urmoq, bir kesak bilan ikki nishonga urmoq kabi variantlari ham mavjud.<sup>2</sup> Mazkur ibora tarkibidagi *bilan* sof ko'makchisi "o'q bilan" tarzida qo'llanib, vosita ma'nosini ifodalab kelgan. "Ota bir o'q bilan ikki, balki uch quyonni urdi, desak mubolag'a bo'lmas. Avvalo ikki yigitchaning do'stligini saqlabgina qolmay, ularni mehnat orqali yanada yaqinlashtirdi."<sup>3</sup> Otaning do'stlikni saqlab qolishi va ularni mehnat orqali yanada yaqinlashtirishi ibora mazmunidagi ikki quyonni urishga teng. *Bilan* ko'makchisini ibora tarkibidan tushirib yoki uni boshqa biriga almashtirib qo'llab bo'lmaydi, aks holda ibora o'zi ifodalaydigan ma'no mazmunni butunlay yo'qotadi. Bir qoshiq suv bilan yutguday - beqiyos go'zal, nihoyatda dilrabo.



Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur,  
G'oyati nozuklukindin **suv bila yutsa bo'lur**. (Lutfiy)

Keltirilgan g'zazalda yuqoridagi iboraning qisqa, ammo chiroyli ifodasini ko'rishimiz mumkin. Ibora ixcham ko'rinishda va tarkibidagi bilan ko'makchisi tarixiy *bila* shaklida qo'llanilgan. Lutfiy o'z yorini shunchaki go'zal demasdan, "suv bilan yutguday" deya ta'riflaydi. G'azal mazmunidagi ko'tarinkilik, bo'yoqdorlik, obrazlilikni ifodalash ibora zimmasiga yuklatilgan.

Yer bilan bitta qilmoq – betartib holda sochilib ketmoq. Yer bilan yakson qilmoq – butunay yemirilmoq, yo'q bo'lmoq.<sup>4</sup> Ushbu ibora tarkibida esa *bilan* ko'makchisi o'zining yangi ma'no qirrasini namoyon qilmoqda. "Xabaringiz bor, uch oy ilgari muzaffar askarlarimiz Suriya hukumati qo'l ostida bo'lgan Palmira shahrini qo'lga kiritishgan edi. Bu shaharda bundan ikki ming yillar avval qurilgan ma'jusiylar ibodatxonalari va sanamlari yer bilan yakson qilindi"<sup>5</sup>. Gapda qo'llanilgan ibora tarkibidagi ko'makchi mazkur iboraning mazmunida birgalik ma'nosini ifodalab kelgan va yo'q bo'lmoq, yo'q qilinmoq ma'nolarini kuchli uslubiy bo'yoqda aks ettirgan.

Ochiq yuz bilan – yaxshi kayfiyat bilan, xushtabiatlilik bilan. Varianti: ochiq chehra bilan.<sup>6</sup>

"O'sha yillarda Qo'yliqdagi mehnat-tuzatuv lagerida ma'lum darajada erkinlik bo'lgan" – deydi professor Naim Karimov. Menga qolsa, yana Mirtemirning lagerda o'z zimmasidagi ishini vijdonan va ochiq yuz bilan bajarishlari ham ijozatlarga yo'l ochgan"<sup>7</sup>. Ko'makchilar matn yoki gap mazmunidan kelib chiqib, o'zi birikkan so'z bilan birga turlicha ma'nolarni bildira olishini aytdik. Yuqoridagi gapda ham bilan ko'makchisi holat ma'nosida qo'llanib, badiiy bo'yoqqa ega bo'lgan iborani shakllantirishda ishtirok etyapti va gap mazmunida o'zgacha ifodani vujudga keltirmoqda.

Ko'z oldiga kelmoq – tasavvur qilmoq, eslamok. Varianti: ko'z o'ngiga keltirmoq, ko'z o'ngida gavdalanmoq, ko'z oldidan o'tmoq.<sup>8</sup> Mazkur ibora tarkibida ravish so'z turkumidan o'tgan old, o'ng ko'makchilari qatnashgan. "U qo'lini har silkitganida Rais buvaning chayir gavdasi silkinib-silkinib ketardi. Pastdagi xotin "Muxa" deganida pashshadek qiltiriq ayolni ko'z oldimga keltiruvdim. "Muxa"si shunaqa bo'lsa, fili qanaqa bo'larkin?"<sup>9</sup> Ushbu gap mazmunida old ravishining atash ma'nosi yuqori pozitsiyani egallagan va ko'z, keltirmoq so'zlari bilan birikib, ko'chma ma'noli frazeologik birlikni tashkil qilgan hamda ibora tarkibida ish –harakatning sodir bo'lish o'rnini bildiruvchi funksional ko'makchi vazifasini bajargan. "Bu nashrlardan Zaki Validiy To'g'on, Ismoilbek Gaspirali, Mirza Fatali Oxundov kabi olimlarning tadqiqiy maqolalari, esdaliklarini, turli janrdagi ijod namunalarini o'qiganidan so'ng Buxoro hayotini orqaga sudrovchi manzaralar ko'z o'ngida yaqqol gavdalandi."<sup>10</sup> Gapda qatnashgan iborada old o'rnida o'ng funksional ko'makchisi va keltirmoq o'rnida gavdalanmoq so'zlari qo'llanilib iboralarda variantlilik va mazmunda "yanada aniqlik, yaqinlik" ma'nolari yuzaga chiqqan.

Ko'z ostiga olmoq – biror maqsadni ko'zlamoq, mo'ljallamoq. Varianti: Ko'z tagiga olmoq<sup>11</sup>. Iborada o'rin ma'nosini bildiruvchi ost, tag vazifadosh ko'makchilari qatnashgan. Lekin quyidagi gapda ular ibora va gap mazmunidan kelib chiqqan holda maqsad ma'nosini



ifodalashda xizmat qilgan: “Brigadasida Suluv degich qiz bo‘ldi.Bo‘ri polvon ana shu qizni ko‘z ostiga oldi.”<sup>12</sup>

Podadan oldin chang ko‘tarmoq – ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa uchun hovliqmalik qilmoq.Ma‘nodoshi: To‘ydan ilgari nog‘ora chalmoq, to‘ydan avval surnay chalmoq<sup>13</sup>.Mazkur iboralar tarkibida payt ravishidan ko‘chgan oldin, ilgari, avval kabi payt mazmunini ifodalovchi vazifadosh ko‘makchilar qo‘llanilgan. “Tog‘am ham voenkomatga yugurmoqchi ekan, Ra‘no yangam qo‘ymabdi.Oyim tog‘amni uzib-uzib olibdi. “Podadan oldin chang ko‘tarma, g‘unchaday xotiningni tashlab urush qilishni kim qo‘yibdi senga”, – debdi”<sup>14</sup> Ushbu gapda qo‘llanilgan oldin ko‘makchisi payt mazmunini ibora tarkibida kelib uslubiy bo‘yoqda ifodalashga xizmat qilgan.

Eldan burun – vaqtidan avval.Varianti: elburutdan.<sup>15</sup> Iborada burun so‘zining omonim varianti oldin, avval, ilgari so‘zlari o‘rnida qo‘llangan va eldan so‘zidan keyin kelib funksional ko‘makchi vazifasiga o‘tgan hamda frazeologik birlikni shakllantirgan. “Saidnosir oilasi butun eldan burun ovrupalashgan, milliy etiketlarga ko‘p ham e‘tibor bermasdi.Qizlarini Hamzaga ishonib, shogirdlikka berib qo‘ygani va eng zamonaviy kiyimlar kiydirishi, ... , qizlaridagi hurlikni har taraflama qo‘llab-quvvatlashi – bular hammasi o‘ta ilg‘orlik edi”.<sup>16</sup> Gapda qilingan ish harakatning oldinroq bajarilganini ifodalash uchun “ avval, oldin” ravishlari o‘rniga mazkur ibora qo‘llanilib, mazmun yaqqolroq, aniqroq ochib berilgan.

Til o‘z taraqqiyoti davomida ayrim o‘zgarishlarga uchraydi, bu o‘zgarish lug‘aviy tarkibda, grammatik qurilishda namoyon bo‘ladi<sup>1</sup>. O‘zbek tili xilma-xil til birliklariga ega bo‘lib, yozuvchi yoki ijodkor o‘z badiiy maqsadidan kelib chiqib, ularni turli o‘rin va shakllarda qo‘llaydi.Bu maqsadni ro‘yobga chiqarishda iboralar eng kuchli ko‘chma ma‘no ifodalashi, uslubiy bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadi. Bunday frazeologik birliklarning ayrimlarini shakllantirishda sof hamda vazifadosh ko‘makchilarning ahamiyati beqiyosdir.Buni yuqoridagi misollar asosida ko‘rib chiqdik.

### Адабиётлар

- 1.A.Pardayev “O‘zbek tili yordamchi so‘zlarining lisoniy tizimdagi o‘rni va lingvopragmatik tahlili” monografiya Toshkent – 2013. 14-bet.
- 2.Sh.Rahmatullayev “ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” T:O‘qituvchi –1978, 44-bet
3. T.Malik “Jinoyatning uzun yo‘li” roman Toshkent:Tohir malik nomidagi nashriyot uyi, 2021 –47-bet.
4. Sh.Rahmatullayev “ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” T:O‘qituvchi –1978, 81-bet
- 5.Rustam Jabborov “Jaholat asirasi” qissa Toshkent: “Yangi asr avlodi” 2016. 165-bet
- 6.Sh.Rahmatullayev “ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” T:O‘qituvchi –1978, 197-bet
7. A‘zam Miraziz “Buyuklar muhabbati” esselar Toshkent:”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti , 2016. 89-bet
8. Sh.Rahmatullayev “ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” T:O‘qituvchi –1978, 151-bet
9. O‘.Hoshimov “Ajdarining tavbasi” hajviy qissa va hikoyalar Toshkent: “O‘zbekiston” – 2016. 87-bet

<sup>1</sup> Erbutayeva Sh. TRANSPOZITSIYA TUSHUNCHASI TALQINIGA NAZARIY YONDASHUVLAR, ILM SARCHASHMALARI// 7-son iyul 2024. 36-39-betlar.



10. A'zam Miraziz "Buyuklar muhabbati" esselar Toshkent:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"  
Davlat ilmiy nashriyoti , 2016. 24-bet
11. Sh.Rahmatullayev " O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" T:O'qituvchi –1978, 148-bet
- 12.T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi" qissa Toshkent: "Sharq", 1994 – 35-bet.
13. Sh.Rahmatullayev " O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" T:O'qituvchi –1978, 208-bet
14. O'.Hoshimov " Ikki eshik orasi" roman Toshkent:Yangi asr avlodi –2016, 121-bet.
15. Sh.Rahmatullayev " O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" T:O'qituvchi –1978, 252-bet
- 16.A'zam Miraziz "Buyuklar muhabbati" esselar Toshkent:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"  
Davlat ilmiy nashriyoti , 2016 61-bet.